



O'ZBEKISTON YOSHLARINING QONIDA UNIVERSALLIK BOR

Gulsanam Xasanova Jahongir qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
Filologiya fakulteti

Email: gulsanamhasanova283@mail.com

Telefon raqami: +998 93 565 79 81

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-September 2023 yil

Ma'qullandi: 28-September 2023 yil

Nashr qilindi: 30-September 2023 yil

KEY WORDS

*dadil maqsad, mustahkam iroda,
ichki motivatsiya, oltin sarlavha,
kelajak zarlavhasi.*

ABSTRACT

Har bir millat kelajagi bugungi kunda yangilik izlashdan to'xtamas, mukammalikni shior qilgan yoshlarning dadil so'zlari va oldilariga qo'ygan maqsadlariga bog'liq. Qaysidir davlatning boshlig'ini yani prezidentini tanimaslik mumkin, ammo, iste'dod bilan shuhrat qozongan qorako'zlarni butun dunyo taniydi. Ushbu maqolada mamlakatimiz yoshlarining qondan qonga o'tib kelayotgan universalligi haqida yoritib bermoqchiman. Zero, yoshlarning qat'iyat bilan maqsadlar sari intilishi va vatan nomini keng jahonga tanitishi yangi zafarlar eshigini ochadi.

O'zbekiston- hali mustaqil davlat deya e'lon qilinganiga uzoq muddat bo'lmasda dunyo bo'ylab shon sharaf qozongan sarhisob qilib bo'lmas darajada yutuqlarga erishgan Yevropa marhabo bo'lgan Osiyoning yuragi.

O'zbekiston yoshlari- yurt taqdiri uchun o'z iste'dodi, yuksak ma'naviyatini rivojlantirgan, dunyo minbarlarida o'z so'zlarini baralla aytgan va jahon arenalarini zabt etgan ertangi kunimizning asl egalari.

Yosh avlodning vatan uchun qilgan ezgu ishlari kun kelib uning ravnaqi uchun foydali bo'lishi shak- shubhasizdir. Aynan shu sabablar yoshlarning vatan kelajagi uchun muhim ekanliklarini aniq ravshan ko'rsatib turadi.

Asosiy qisim: O'zbekiston yoshlarining qonida universallik bor. Ularning dunyo tan olgan buyukliklari yurtimiz uchun naqadar ko'p yutuqlar keltirayotganini faqat so'zlardagina ifodalash mumkin emas. Yuksak iste'dod sohibi bo'lgan O'zbekiston yoshlari ko'p, bu yuzdan ularning o'rnak hayotlarini faqatgina maqolada emas, butun boshli romanda ham ta'svirlash qiyin.

Aziza Shonazarova Toshkent shahrida tavallud topgan. Maktab yillaridan o'qishga bo'lgan qiziqishi Aziza Shonazarovani Sharqshunoslik institutiga chorlaydi. "Stipendiya olgan kunimoq uyga bir quchoq kitob ko'tarib kirardim. Qo'limdagi kitoblarimdan oila a'zolarim stipendiya olganligimni bilishardi"- deydi qahramonimiz. U magistraturani Polshada, doktoranturani Kolumbiyada tamomlaydi. Kolumbiya universitetida 500 ta olim ichidan yolg'iz Aziza tanlab olinadi. 2 oylik jajji chaqalog'i bilan professorlik ishini yoqlaydi. Bu Aziza Shonazarova uchun albatta qiyinchiliklar tug'dirdi. Ammo, "Great things never come from comfort zones. Aziza Shonazarova Arab va Fors filologiyasida tahsil oldi va ilmiy ishini

Markaziy Osiyoda jadidgilik tarixi mavzusida yozdi. Asli toshkentlik bo'lgan Laziz Azizzodaning " Turkistonning uyg'onish tarixi " asari ustida ishlab, uni ingliz tiliga tarjima qildi. Keyin unga juda qiziq bo'lgan mavzu tasavvuf va ayollar tarixiga ilmiy sho'ng'idi. Markaziy Osiyodagi ayollarni so'fizim tarixida tutgan roli haqida dissertatsiya yozib, yoqladi. Ilmiy ishi orqali G'arbdagi noto'g'ri qarashlarni ya'ni o'rta asrlarda Markaziy Osiyo va islom mamlakatlari ayollari faqatgina paranji ichida yurgan, ular uydan tashqariga chiqmagan, jamiyatda o'rni bo'lmagan, degan fikrlarning qisman asossiz ekanini isbotlashga harakat qildi. Buning uchun sakkiz yil vaqti ketdi. Shaxsan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan "O'zbekiston Qahramoni" ordeni bilan taqdirlandi. Bizning ham dunyoning eng ko'zga ko'ringan , top universitetlaridan biri bo'lgan Kolumbiya universitetida o'zbek qizimiz jon jahdi bilan ilm ulashmoqda. Bu ham faxr, ham o'zbek belgisining iftixori.

Mushtariybonu Sharifova- Tesla kompaniyasiga ishga olingan birinchi o'zbekistonlik qiz. Mushtariybonu 1993- yil tavallud topgan. Litseyi bitirgach, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universitetiga o'qishga kirmoqchi bo'ladi, ammo imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tolmaganligi uchun talabalikka tavsiya etilmaydi. Keyinchalik u Singapur menedjmentni rivojlantirish universitetiga o'qishga kiradi. U yerda 1 yil o'qidi va o'z kuchi bilan Berlindagi University of applied sciences in Europe ga o'qishga kirishga muvaffaq bo'ldi.

O'qishning 3-semestrndan boshlab ularda majburiy amaliyot boshlandi. 4-kursdan esa staj dasturini amalga oshirdi. Oxirgi 5-6 -semestrlarda talaba yo'nalishini belgilab olishi kerak edi. U dolzarb soha deb moliya yo'nalishini tanladi. It sohasini ham qo'ldan kelganicha o'rganishga harakat qildi. 2017-yilning sentabridan 2018-yilning martigacha Adidas kompaniyasida ishlagan. SAP kompaniyasida esa 2-amaliyotini o'tab, bitiruv malakaviy ishini yozib tugatgan.

American Publishing Company kompaniyasida 2020 yil fevralidan 2021 – yil yanvarigacha ishlagan. O'zbekistonlik hozirgi kunda Germaniyada istiqomat qiluvchi, dunyo tan olgan Tesla kompaniyasida menejer bo'lib faoliyat yuritayotgan Mushtariy Sharifova biz yoshlarga quyidagicha maslahat beradi.

"Hech qachon o'z orzularingizdan voz kechmang, hamisha olg'a yuring. Qo'lingdan kelmaydi, eplolmaysan degan insonlarga quloq solmang, negative tarzda qabul qilmang. Men albatta bajaraman, deng va o'zingizga ishonang. O'Shanda atrofdagilar ham sizga ishonadi. Bir natijaga erishgungacha qo'lingizdan kelgan hamma narsani qiling, barcha imkonlarni ishga soling. O'z ustingizda tinimsiz ishleng, bilim va malakangizni orttiring. Allohdan eng yaxshisini so'rang, u albatta so'raganingizni beradi. Mashaqqat ortidan albatta mukofot ham keladi".

Yoshlarning yuksak marralar sari intilishi va bu yo'lda mashaqqatlarni qarshilashi ularning yanada ruhan va ma'nau kuchli bo'lishiga zamin yaratadi. Dilshoda Ergasheva – Harvard va Stateford universitetlariga bir vaqtning o'zida o'qishga qabul qilingan O'zbek qizi, butun dunyoda boks bo'yicha "Tokio 2020" da record o'rnatgan Bahodir Jalolov o'zbek o'g'loni va boshqa dunyoga yurtimiz nomini tanitib kelayotgan kelajak avlodlarimiz hamisha arenalarda bayrog'miz hilpirashiga sabab bo'lishmoqda. Yurt faxri, xalq rahmatiga sazavor bo'lgan kelajak bunyodkorlarimizning kelgusi ishlarida ularga ko'makchi bo'lib, ularni qo'llab – quvvatlab turish eng oliy vazifamizdir.

Xulosa.

O'zbekiston – yosh davlat. Yurtimizning dunyodagi o'rni beqiyos. Qaysi jabhaga nazar solmang O'zbekistonlik yoshlar va ularning yutuqlari baralla yangramoqda. Sport sohasi

deysizmi, ta'lim sohasi deysizmi har sohada faol va qobliyatli bo'lgan yurtdoshlarimizning mehnatlarini butun dunyo anglab yetmoqda.

O'zbekistonlik desa, sharqda porlagan yulduzlarning avlodlari deya bizga nazar tashlashadi. Xulosa qilib aytganda, universallik qobliyatimizni biz O'zbekiston yoshlari avlodlarimizga ham meros qoldirishimiz va albatta dunyoga tanitishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmirzayev N. "Notiqlik san'ati asoslari" yangi asr-2008. 200-bet
2. E.G'oziev "Muloqot psixalogiyasi" Toshkent 1990.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risida" gi qonuni. O'zbekiston 1991.
4. "Xalq so'zi" gazetasi 14-bet 2010.
5. Education.uz improving communicative skills google finder.
6. "O'zbekistonlik" hujjatli filmi manbaa Toshkent 2021..

